

### XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI



**Ish haqi.** 2025- yil yanvar-dekabr oylarida Navoiy viloyati shahar, tumanlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tahlili quyidagilarni ko‘rsatmoqda. Viloyatda o‘rtacha oylik ish haqi 7 871,6 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Uchquduq tumanida 11 969,5 ming so‘mni (viloyatning o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 152,1 %), Zarafshon shahrida 10 949,9 ming so‘mni (139,1 %), Konimex 8 543,5 ming so‘mni (108,5 %), Navoiy shahrida

8 417,1 ming so‘mni (106,9 %) tashkil etgan bo‘lsa, Karmana tumanida 5 920,6 ming so‘mni (75,2 %), Tomdi tumanida 5 211,0 ming so‘mni (66,2 %), Navbahor tumanida 3 907,1 ming so‘mni (49,6 %), G‘ozg‘on shahrida 3 872,4 ming so‘mni (49,2 %), Xatirchi tumanida 3 709,2 ming so‘mni (47,1 %), Nurota tumanida 3 532,0 ming so‘mni (44,9 %) va Qiziltepa tumanida 3 460,4 ming so‘mni (44,0 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

#### O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi\* (ming so‘mda)



**Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2024- yilning mos davriga nisbatan, % da)

*ming so'mda*

	<b>2024- yil</b>	<b>2025*- yil</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>
<b>Jami</b>	<b>6 783,2</b>	<b>7 871,6</b>	<b>116,0</b>
Navoiy sh.	7 335,3	8 417,1	114,7
Zarafshon sh.	9 860,2	10 949,9	111,1
G'ozg'on sh.	3 303,7	3 872,4	117,2
Karmana	4 825,5	5 920,6	122,7
Konimex	7 342,5	8 543,5	116,4
Qiziltepa	2 954,9	3 460,4	117,1
Navbahor	3 213,7	3 907,1	121,6
Nurota	3 013,4	3 532,0	117,2
Tomdi	4 038,4	5 211,0	129,0
Uchquduq	10 422,4	11 969,5	114,8
Xatirchi	3 089,4	3 709,2	120,1

*\*)Dastlabki ma'lumot, kichik tadbirkorlik va qishloq xo'jaligi korxonalarisiz.*

2025- yil yanvar-dekabr oylarida Navoiy viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 116,0 foizni tashkil etib, jumladan Tomdi tumanida 129,0 foiz, Karmana tumanida 122,7 foiz, Navbahor tumanida 121,6 foiz, Xatirchi tumanida 120,1 foiz, G'ozg'on shahrida 117,3 foiz, Nurota tumanida 117,2 foiz, Qiziltepa tumanida 117,1 foiz, Konimex tumanida shahrida 116,4 foiz, Uchquduq tumanida 114,8 foiz, Navoiy shahrida 114,7 foiz va Zarafshon shahrida 111,1 foizga o'sgani kuzatildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

ming so'mda

	Yanvar-dekabr		Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da	
	2024- yil	2025- yil	2024- yil	2025- yil
<b>Jami viloyat bo'yicha:</b>	<b>6 783,2</b>	<b>7 871,6</b>	<b>x</b>	<b>x</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	9 701,7	11 107,4	143,0	141,1
Qurilish	7 402,6	8 327,5	109,1	105,8
Savdo	3 774,0	4 485,3	55,6	57,0
Tashish va saqlash	5 191,1	5 981,1	76,5	76,0
Axborot va aloqa	7 547,7	8 231,7	111,3	104,6
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	13 258,1	14 242,1	195,5	180,9
Ta'lim	3 536,6	4 161,9	52,1	52,9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3 354,8	3 966,2	49,5	50,4
Boshqa faoliyat turlari	5 656,0	6 693,2	83,4	85,0

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati (180,9 %), sanoat (141,1 %), qurilish (105,8 %), axborot va aloqa (104,6 %), boshqa faoliyat turlari (85,0 %), tashish va saqlash (76,0 %), savdo (57,0 %), ta'lim (52,9 %) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (50,4 %) sohalari hissasiga to'g'ri keldi.

**Sanoat sohasida** 49 ta korxonada 82 134 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 44,5 %) xodim ishlagan bo'lib, sanoat sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 11 107,4 ming so'mni;

**Ta'lim sohasida** 694 ta korxonada 46 206 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 25,0 %) xodim ishlagan bo'lib, ta'lim sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 161,9 ming so'mni;

**Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish sohasida** 60 ta korxonada 20 699 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 11,2 %) xodim ishlagan boʻlib, sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish sohasida oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 966,2 ming soʻmni;

**Savdo sohasida** 9 ta korxonada 1 233 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan 0,7 %), xodim ishlagan boʻlib, savdo sohasida oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 485,3 ming soʻmni;

**Qurilish sohasida** 17 ta korxonada 5 195 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,8 %) xodim ishlagan boʻlib, qurilish sohasida oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 8 327,5 ming soʻmni;

**Axborot va aloqa sohasida** 12 ta korxonada 365 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,2 %) xodim ishlagan boʻlib, axborot va aloqa sohasida oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 8 231,7 ming soʻmni;

**Tashish va saqlash sohasida** 9 ta korxonada 1 249 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,7 %) xodim ishlagan boʻlib, tashish va saqlash sohasida oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 5 981,1 ming soʻmni;

**Bank, sugʻurta, lizing, kredit va vositachilik sohasida** 38 ta korxonada 1 915 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,0 %) xodim ishlagan boʻlib, bank, sugʻurta, lizing, kredit va vositachilik sohasida oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 14 242,1 ming soʻmni;

**Boshqa faoliyat turlari sohasida** 357 ta korxonada 25 597 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 13,9 %) xodim ishlagan boʻlib, boshqa faoliyat turlari sohasida oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 6 693,2 ming soʻmni tashkil etdi.